

**Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida
DEKLARATSIYA**

"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasiga muvofiq ishga nomzod tomonidan mazkur deklaratsiya taqdim qilinishi talab etiladi.

Ishga nomzod har qanday haqiqiy yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilishi shart. Ushbu ma'lumotlar keyinchalik "O'zog'irsanoatloyiha instituti" aksiyadorlik jamiyatni (bundan buyon matnda Jamiyat deb yuritiladi) rahbariyati tomonidan har tomonlama tekshirilishi zarur.

Ushbu hujjat (to'ldirilgach) qat'iy konfidensial bo'lib, faqat Jamiyatning ichki foydalanishi uchun mo'ljallangan. Ushbu hujjatning mazmuni uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi va ular tomonidan biron bir maqsadda foydalanilmaydi. Hujjatni saqlash muddati uch yil.

Mazkur deklaratsiyani to'ldirishdan avval "O'zog'irsanoatloyiha instituti" AJning Qorrupsiyaga qarshi siyosati bilan tanishib chiqdim.

ishga nomzodning imzosi

"O'zog'irsanoatloyiha instituti" AJ
Bosh direktori
B.Xazratkulovga

bo'limi (sektori)

lavozimiga nomzod

F.I.Sh. (to'liq): _____

dan

JShShIR _____ pasport _____

Deklaratsiyani to'ldirish sanasi «_____» 202____ yil

Quyidagi savollarni diqqat bilan o'qib, har bir savolga "**ha**" yoki "**yo'q**" deb javob berish lozim. "**Ha**" javobi manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini anglatmaydi, biroq u Jamiyat rahbariyati tomonidan keyingi muhokama va ko'rib chiqishga loyiq bo'lgan masalani ochib beradi. Deklaratsyaning 7-bandi oxirida ajratilgan joyda barcha "**ha**" javoblarini izohlab berish darkor. Deklaratsiyadagi savollar Sizga va Sizning yaqin qarindoshlariningizga ham tegishlidir.

Ushbu deklaratsiyada quyidagi atamalar qo'llaniladi:

yaqin qarindoshlar – qarindosh yoki quda tomonidan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-onalari, shu jumladan asrab olgan ota-onalari, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari;

aloqador shaxslar - xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtiroy etadigan shaxslar (*aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega holatlari bundan mustasno*);

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (*bevosita yoki bilvosita*) manfaatdorlik ishga nomzodning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yohud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan Jamiatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

ishga nomzodning shaxsiy manfaatdorligi – ishga nomzod tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (*shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari*).

1. Siz yohud yaqin qarindoshlaringiz yohud Sizga aloqador shaxslar to'g'ridan-to'g'ri yoki benefitsiar sifatida aksiyalarga (ulushlarga) egami(siz) yoki o'zga moliyaviy manfaatga egami(siz):
 - 1.1. Jamiatning aktivlarida? _____
 - 1.2. Boshqa tashkilotda, shu jumladan, Jamiat bilan shartnomaviy munosabatlarda bo'lgan (kontragent, pudratchi, buyurtmachi, konsultant va boshqalar) tashkilotda? _____
2. Oldingi 3 yil davomida Jamiat faoliyatini tekshirish, nazorat qilish yoki boshqa yo'l bilan ta'sir o'tkazishga imkon beradigan lavozimda ishladingizmi? _____
3. Siz yohud yaqin qarindoshlaringiz yohud Sizga aloqador shaxslar boshqaruv organlar (direktorlar kengashi, boshqaruv kengashi) yoki ijro etuvchi rahbarlar (direktorlar, direktor o'rnbosarlari va boshqalar.), shuningdek xodimlar, maslahatchilar, konsulantlar, agentlar yoki ishonchli vakillar sifatida qatnashasizmi?
 - 3.1. Jamiat bilan hamkorlik qilayotgan tashkilotda? _____
 - 3.2. Jamiat bilan biznes aloqalarini o'rnatish imkoniyatini qidirayotgan yoki u bilan ushbu haqida muzokaralar olib borayotgan tashkilotda? _____
 - 3.3. Jamiatga raqib bo'lgan tashkilotda? _____
 - 3.4. Jamiat bilan sud yoki hakamlik jarayonida taraf tariqasida ishtirok etuvchi yoki ishtirok etmoqchi bo'lgan tashkilotda? _____
4. Siz boshqa tijorat tashkilotda o'rindoshlik asosida ishlaymizmi yohud yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanaszizmi? _____
5. Sizning oila a'zolarining yoki yaqin qarindoshlaringiz Jamiatda ishlaydimi? _____
6. Jamiatga ishga kirishda Jamiatning biron bir xodimi Sizga ko'maklashyaptimi? _____
7. Siz manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradigan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan yuqorida aytib o'tilmagan boshqa holatlardan xabardormisiz? _____

Yuqoridagi savollarning birortasiga ijobiy javob berilgan taqdirda, vaziyatni har tomonlama ko'rib chiqish va baholash uchun quyida bat afsil ma'lumot berish kerak. Boshqa tijorat tashkilotning ustav kapitalida ishtirok etayotgan holda, tashkilotning to'liq nomlanishi, STIR va manzili, aloqador shaxslarning JShShIR ko'rsatilishi darkor.

Bugungi kunda yaqin qarindoshlaringizni ko'rsating (F.I.Sh., JShShIR):

Men shu bilan yuqoridagi barcha savollarni o'qiganimni va tushunganimni, shuningdek javoblarim va har qanday tushuntirishlarim to'liq, to'g'ri va haqiqat ekanligini tasdiqlayman.

Imzo: _____

Ish beruvchining deklaratsiya bo'yicha qarori
(imzo bilan tasdiqlanishi lozim):

Manfaatlar to'qnashuvi aniqlanmagan	
Deklaratsiya, unda keltirilgan ma'lumotlarni ko'shimcha tekshirish uchun qorrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmasiga taqdim qilinsin	